

## MARKAZLASHGAN MOLIYA DAROMADLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Moliya yo‘nalishi magistranti*

**Kupaysinov Behruz Xurshid o‘g‘li**

*Email: [bekhruz0102@gmail.com](mailto:bekhruz0102@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Davlat moliyasini shakllantirishda umum davlat soliqlarning ahamiyatlilagini oshirish ishlarini tashkil qilish va davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida soliq tushumlarini prognozlashning keng ko‘lamli usullarini joriy etish yuzasidan takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Prognoz, munitsipal, davlat funksiyalari, kontseptsiya, soliq mexanizmi, progressiv shkala, ekvivalent, modernizatsiya

Har bir mamlakatda ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilishi lozim bo‘lgan byudjet-soliq siyosatining mazmun-mohiyati va uning yo‘nalishlarini eng avvalo, shu mamlakatda bozor munosabatlarini shakllantirishda uning qanday modeliga tayanilgani (asoslanganligi) belgilab beradi. Shu ma’noda bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosati o‘zaro vobastadir. Ularning ikkinchisi (byudjet-soliq siyosati)ni birinchisi (bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari)dan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Agar aksincha ish tutilsa, bu bir tomon dan, mamlakatda sog‘lom bozor munosabatlarining rivojlanishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi, uni murakkablashtiradi. Ikkinchi tomon dan esa, byudjet-soliq siyosatida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning u yoki bu modelining o‘ziga xos xususiyatlari, talablari va prinsiplari inobatga olinmasa, bu bunday siyosatning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga o‘ziga xos zamin tayyorlaydi va byudjet-soliq siyosati albatta, ertami-kechmi, baribir muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shuning uchun ham bu yerda bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosatining o‘zaro vobastaligini to‘g‘ri idrok etish prinsipial ahamiyatga ega. Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddallashtirish muhim masalalardan hisoblanadi[1].

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo‘lishi va faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu o‘rinda soliq kategoriysi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta’kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma’noda davlat ixtiyoriga soliq to‘lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi[2]. “Soliqlar - iqtisodiyotni tartibga soluvchi vosita” kontseptsiyasi iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirishni ta’minalash va

iqtisodiyotni boshqarishda soliqlardan foydalanishni anglatadi. Keysn o‘zining ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotni soliqlar vositasida boshqarib turish zaruratini nazariy jihatdan asoslab bergan va soliqlarga avtomatik tarzda barqarorlashtiruvchi vosita sifatida qaragan. Shu bilan birgalikda soliq mexanizmini o‘zgartirib, soliq siyosatini iqtisodiyotning siklli rivojlanishiga muvofiqlashtirishni tavsiya etgan. “Soliqlar - daromadlarni barqarorlashtiruvchi vosita” nazariyasining asoschisi Ye.Jerarden (frantsuz iqtisodchisi) soliqlar yordamida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmiga ta’sir etib, jumladan soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo‘llash orqali jamiyat a’zolarining mulkiy tengsizligini tugatish mumkinligini ta’kidlaydi. Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishning asosiy maqsadi xo‘jalik yuritishda qulay sharoitlarni yaratib berish va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lib, shu maqsadlarga erishish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- soliq tushumlari hajmini o‘zgartirish;
- soliqqa tortishning shakl va usullarini o‘zgartirish;
- soliq stavkalarini o‘zgartirish, ularni tabaqlashtirish;
- soliq imtiyozlaridan foydalanish;
- soliqqa tortilishi lozim bo‘lgan ob’ektlarni o‘zgartirish;
- jarimalar qo‘llash va boshqalar[3].

Soliqlar yangi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning eng samarali vositasiga aylanmoqda. Oqilona soliq tizimi milliy, mintaqaviy, mahalliy va xususiy manfaatlar mutanosibligini ta’minlashi, ishlab chiqarish, tadbirkorlik va investitsiya faolligini rivojlantirishga ko‘maklashishi kerak. Soliqlar va yig‘imlar jismoniy va yuridik shaxslardan ko‘paytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlash uchun undiriladigan to‘lovlarning majburiy ekvivalenti sifatida davlat iqtisodiyotidagi inqirozli hodisalarining og‘irligini yumshatish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan[4].

Soliq imtiyozlari rag‘batlantirish va samarali  
qo‘llanilishiga qarab quyidagi ko‘rinishlarda  
ifodalanishi mumkin



### 1-rasm. Soliq imtiyozlari rag'batlantirish va samarali qo'llash.

Davlat moliysi — davlat ixtiyorida pul jamg‘armalarining tashkil etilishi, taqsimlanishi va sarflanishi sohasidagi moliyaviy munosabatlar. Davlat moliyasining mablag‘lari umummilliy manfaatlar yo‘lida sarflanadi, davlatning funksiyalarini bajarishga xizmat qiladi. Davlat moliysi pul jamg‘armalari, moliya mexanizmi, davlatning moliyaviy institutlari (idoralari) va moliya siyosatini o‘zida mujassamlashtiradi. Davlat moliysi tarkiban davlat byudjeti, mahalliy (munitsipal) byudjetlar, davlat korxonalarining moliysi (ularning byudjeti), hukumatga qarashli maxsus jamg‘armalar, davlat krediti (davlat qarz olgan va qarzga beradigan vositalari) kabi turlarga bulinadi[5].

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasidagi soliq tizimi modernizatsiyasiga yondoshuvlarni o‘zgartirish hamda soliqlarni tartibga solish funktsiyasining bir qismi sifatida soliq ma’muriyatichiliqi tizimini takomillashtirish zarur. Jamiat taraqqiyotida bir bosqichdagi vazifalar muvaffaqiyatli hal etilishi bilanoq navbatdagi yangi vazifalar kun tartibiga qo‘yiladi. Yangi vazifalarni “eski” byudjet-soliq siyosati doirasida bajarishga urinish hamma vaqt ham kutilgan natijani beravermaydi. Yangi vazifalarga nisbatan yangi byudjet-soliq siyosati zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. T.S. Malikov Byudjet-soliq siyosati 2019-yil
2. A. V. Vahobov, A. S. Jo‘rayev soliqlar va soliqqa tortish 2009-yil 6-bet

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi №pf60-sonli farmoni.
4. Davlat byudjentni shakllantirishda soliq o‘rni Rizayeva Kumush Mehriddinovna byudjet daromadlari bazasini mustaxkamlash va byudjetlararo munosabatlar bo‘limi mudiri
5. A. V. Vahobov, A. S. Jo‘rayev soliqlar va soliqqa tortish 2009-yil
6. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil